

Zo‘ravonliksiz oila – farovon hayot sari...

Muallif: Abdumo‘minova Dilafruz Alibek qizi

Oqdaryo tuman hokimligi, Oila va xotin-qizlar bo‘limi Yangiqo‘rg‘on–

Yangiqishloq MFY xotin-qizlar faoli

Oqdaryo tumani maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limi tasarrufidagi 3-sonli

Davlat maktabgacha ta‘lim tashkiloti psixologi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada oilaviy zo‘ravonlik muammosi, uning ijtimoiy va psixologik oqibatlarini, shuningdek, zo‘ravonliksiz muhitni yaratishning asosiy yo‘nalishlari tahlil qilingan. Muallif sog‘lom oila va farovon jamiyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni yoritib, zo‘ravonlikka qarshi kurashishning ma‘naviy, huquqiy va psixologik asoslarini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: oila, zo‘ravonlik, psixologik muhit, hurmat, mehr, sabr, totuvlik, ijtimoiy himoya, farovonlik, tinchlik.

Oila – inson hayotining eng muhim ijtimoiy makoni, unda inson nafaqat jismoniy, balki ma‘naviy va ruhiy jihatdan shakllanadi. Har bir bola uchun oila – bu mehr, ishonch, himoya va muhabbat maskani bo‘lishi kerak. Afsuski, ayrim hollarda oilada zo‘ravonlik, bosim, ruhiy tazyiq, e‘tiborsizlik kabi salbiy holatlar kuzatilmoqda. Bu esa nafaqat oila muhitini buzadi, balki jamiyatning ma‘naviy poydevoriga ham zarar yetkazadi. “Zo‘ravonliksiz oila – farovon hayot sari” degan g‘oya bugungi kunda dolzarb masalalardan biri bo‘lib, uning mohiyati inson huquqlarini himoya qilish, har bir a‘zoning qadriyat sifatida e‘tirof etilishi va oilaviy tinchlikni ta‘minlashga qaratilgan. Zo‘ravonlik faqat jismoniy tajovuz bilan chegaralanmaydi.

Psixologik, iqtisodiy, jinsiy, ma‘naviy zo‘ravonlik ham oilaviy tinchlikni buzadigan omillardandir. Eng achinarlisi, bu holatlar ko‘p hollarda “oilaviy masala” sifatida yopiq qoladi, jabrlanuvchi esa ko‘pincha ayol yoki bola bo‘ladi. Jamiyatning farovonligi esa aynan shu kabi “ko‘rinmas muammolarni” hal etish, ularning ildizini yo‘qotish bilan boshlanadi. Shuning uchun har bir inson, ayniqsa ota-ona, zo‘ravonlikning hech qanday shakli oqlanmasligini, oilada hurmat, mehr va sabrning ustuvor bo‘lishi lozimligini anglab yetishi zarur. Oilaviy zo‘ravonlikning eng og‘ir oqibati – bu ruhiy jarohatdir. Ayniqsa, bolalar oiladagi agressiyani ko‘rib ulg‘ayganda, ularning shaxsiy rivojlanishiga, kelajakda sog‘lom munosabatlar qurish qobiliyatiga salbiy ta‘sir qiladi.

Ruhiy tazyiqqa uchragan bola o‘z fikrini aytishdan qo‘rqadi, o‘zini aybdor his etadi va bu holat kattalikka o‘tganida depressiya, ishonchsizlik, tajovuzkorlik kabi



psixologik muammolarga olib keladi. Shuning uchun zo‘ravonlikka qarshi kurash – bu, avvalo, farzandlar kelajagini asrash demakdir. Mamlakatimizda so‘nggi yillarda oiladagi zo‘ravonlikning oldini olish borasida muhim qonuniy asoslar yaratildi. Xususan, “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi qonun, “Zo‘ravonlikdan himoya to‘g‘risida”gi qonunlar, “Ayollarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish” markazlarining faoliyati, “Ishonch telefoni”, “Ayollar daftari” kabi mexanizmlar – bularning barchasi oilada tinchlikni mustahkamlash, jabrlanuvchilarni himoya qilish va zo‘ravonlikka qarshi murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan. Oila psixologiyasi sohasida olib borilayotgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, zo‘ravonlikka moyil insonlar ko‘pincha o‘zlari ham bolalikda tazyiqqa uchragan, muhabbat yetishmagan yoki stressli muhitda ulg‘aygan bo‘ladi. Shu sababli oilada psixologik muhitni sog‘lomlashtirish, muloqotni yaxshilash, hissiy muvozanatni saqlash – zo‘ravonlikning oldini oluvchi eng muhim omillardir. Oilaviy nizolarda sabr, kechirim, tinglash va murosasiz yo‘lini tanlash – bu kuchsizlik emas, balki donolik belgisi hisoblanadi. Ayniqsa, erkaklar oilada yetakchi sifatida buni anglab, ayoliga va farzandlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lishi zarur.

Ayol esa oilada mehr va totuvlik muhitini yaratishda beqiyos rol o‘ynaydi. U mehr, sabr va e‘tibor orqali oilaning ruhiy asosini mustahkamlaydi. Shu sababli jamiyatda ayolning o‘rni va huquqlarini hurmat qilish – bu aslida oila mustahkamligiga sarmoya kiritishdir. Har bir oila a‘zosi “zo‘ravonliksiz muhit”ni yaratish uchun o‘z hissasini qo‘shmog‘i kerak. Bu, avvalo, o‘zini boshqarish, g‘azabni nazorat qilish, ijobiy muloqotni yo‘lga qo‘yish, o‘zaro hurmat tamoyillariga amal qilishni anglatadi. Bolalarda esa mehr, bag‘rikenglik, sabr-toqat, kechirimlilik kabi fazilatlarni tarbiyalash muhimdir. Maktabgacha ta‘lim muassasalarida, maktablarda va jamoat joylarida bolalarga “zo‘ravonlik – bu yomonlik” degan tushunchani erta yoshdan singdirish zarur. Chunki farzandlar bu g‘oyani ongiga joylashtirsa, kelajakda o‘z oilasida ham mehr-oqibatni ustun qo‘yadi. Shuningdek, mahalla va oila psixologlari, diniy ulamolar, pedagoglar va tibbiyot xodimlari o‘zaro hamkorlikda ishlashi kerak. Chunki zo‘ravonlik – bu faqat oilaning ichki muammosi emas, balki ijtimoiy masaladir. Har bir mahallada profilaktika ishlari kuchaytirilsa, nizolarni erta bosqichda hal etish mexanizmlari yo‘lga qo‘yilsa, ko‘plab fojialarning oldi olinadi. Zo‘ravonlikka qarshi kurashda ommaviy axborot vositalarining ham roli beqiyosdir. Televizion ko‘rsatuvlar, ijtimoiy tarmoqlardagi targ‘ibotlar, maqolalar, teatr va filmlar orqali oilaviy totuvlik, hurmat, mehr-muhabbat g‘oyalarini keng yoyish – bu nafaqat axborot, balki tarbiya vositasidir. Oila tinch bo‘lsa, jamiyat tinch bo‘ladi, jamiyat tinch bo‘lsa, mamlakat rivojlanadi. Shu bois “Zo‘ravonliksiz oila – farovon hayot sari” degan shior har bir inson hayotiy mezoniga aylanishi lozim. Zero, zo‘ravonlikka murosasizlik – bu

insoniylikning eng oliy ko‘rinishidir. O‘zaro hurmat, bag‘rikenglik va sevgi bilan qurilgan oila esa hech qachon buzilmaydi. Har bir oila mehr, muloqot va tushunishga asoslangan bo‘lsa, jamiyatda ruhiy sog‘lomlik, barqarorlik va farovonlik qaror topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Zo‘ravonlikdan himoya to‘g‘risida”gi Qonuni, 2023-yil.
2. Jo‘rayev Sh. “Oila psixologiyasi va muomala madaniyati” – Toshkent, 2022.
3. Mamarasulova N. “Ayollar huquqlari va ijtimoiy himoya tizimi” – Samarqand, 2021.
4. www.family.uz
5. www.ziyonet.uz



GLOBAL SCHOLARS
SCIENTIFIC PUBLISHING